

UZOQ MUDDATLI MAJBURIYATLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

Azizov Muhammadmahdiy Umidjon o'g'li

Andijon davlat texnika instituti

Buxgalteriya hisobi va auditi yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada uzoq muddatli majburiyatlarning iqtisodiy mohiyati, ularning korxonalar moliyaviy resurslarini shakllantirishdagi o'rnini hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini moliyalashtirishdagi ahamiyati atroflicha yoritilgan. Uzoq muddatli majburiyatlarning mazmuni, turlari, ularning korxonalar moliyaviy holatiga ta'siri va investitsion faoliyatni rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, uzoq muddatli kreditlar, qarz mablag'lari va boshqa moliyaviy majburiyatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirishning nazariy hamda amaliy jihatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, buxgalteriya hisobi milliy standartlari va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida uzoq muddatli majburiyatlarni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy asoslar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: uzoq muddatli majburiyatlar, iqtisodiy mohiyat, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, uzoq muddatli kreditlar, qarz majburiyatlari, moliyaviy resurslar.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining barqarorligini ta'minlash, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun yetarli moliyaviy resurslarga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsadlarga erishishda uzoq muddatli majburiyatlar korxonalar uchun muhim moliyalashtirish manbalaridan biri hisoblanadi. Uzoq muddatli majburiyatlar korxonalariga qo'shimcha mablag'larni jalb qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda iqtisodiyotning globalashuvi va moliya bozorlarining rivojlanishi natijasida korxonalarining uzoq muddatli moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji ortib bormoqda. Shu sababli uzoq muddatli majburiyatlarning iqtisodiy mohiyatini chuqur o'rganish, ularni samarali boshqarish hamda buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur majburiyatlar korxonaning moliyaviy holati, to'lov qobiliyati va investitsion jozibadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Uzoq muddatli majburiyatlar korxonalar moliyaviy tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular xo'jalik yurituvchi subyektning tashqi manbalar hisobidan jalb qilingan

moliyaviy resurslarini ifodalaydi. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra, uzoq muddatli majburiyatlar - bu korxonaning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi bir yildan ortiq muddat davomida bajarilishi lozim bo'lgan qarz majburiyatlaridir.

Ushbu majburiyatlarning asosiy mohiyati shundan iboratki, ular korxonaning vaqtincha foydalanish uchun jalb etilgan mablag'larini aks ettiradi va belgilangan muddatda qaytarilishi shart bo'ladi. Ya'ni, uzoq muddatli majburiyatlar korxonaga uchun moliyaviy resurs manbai hisoblangan holda, ayni paytda kelajakda bajarilishi lozim bo'lgan majburiyat sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu jihatdan ular ikki tomonlama iqtisodiy xarakterga ega: bir tomondan moliyalashtirish manbai, ikkinchi tomondan esa qarz majburiyati [6].

Uzoq muddatli majburiyatlarning mohiyati ularning vaqt omili bilan ham bevosita bog'liqdir. Ular qisqa muddatli majburiyatlardan farqli ravishda uzoq muddatga jalb qilinadi va odatda strategik maqsadlar - ishlab chiqarishni kengaytirish, asosiy vositalarni modernizatsiya qilish, investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun yo'naltiriladi. Shu sababli ular korxonaning uzoq muddatli rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Mazkur majburiyatlar korxonaga balansining passiv qismida aks ettiriladi va ular korxonaning qarz kapitalini ifodalaydi. Ularning mavjudligi korxonaga qo'shimcha moliyaviy imkoniyatlar yaratadi, ya'ni o'z mablag'lari yetarli bo'lmagan sharoitda ham faoliyatni kengaytirish imkonini beradi. Biroq shu bilan birga, uzoq muddatli majburiyatlar korxonaga zimmasiga ma'lum majburiyatlarni yuklaydi, ya'ni qarzni o'z vaqtida qaytarish, foiz to'lovlarini amalga oshirish kabi talablarni keltirib chiqaradi [8].

1-jadval.

Uzoq muddatli majburiyatlarning iqtisodiy mohiyati.

Yo'nalish	Tavsif
Moliyalashtirish manbai sifatida	Korxonaning investitsion va rivojlanish ehtiyojlarini qoplaydi
Qarz majburiyati sifatida	Kelajakda qaytarilishi lozim bo'lgan majburiyatni bildiradi
Strategik ahamiyati	Uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlaydi
Moliyaviy ta'siri	Korxonaga barqarorligi va likvidligiga ta'sir ko'rsatadi

Uzoq muddatli majburiyatlarning yana bir muhim jihati - ularning korxonaga moliyaviy barqarorligiga ta'siridir. Agar ular oqilona va samarali boshqarilsa, korxonaga rivojlanishiga xizmat qiladi. Aks holda esa qarz yukining ortishi, moliyaviy isklarning kuchayishi va to'lovga qobiliyatlilikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ularning iqtisodiy mohiyatini to'g'ri anglash, ularni boshqarish mexanizmlarini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzoq muddatli majburiyatlar - bu korxonaning uzoq muddatli moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi, lekin kelajakda majburiy ravishda qaytarilishi lozim bo'lgan qarz mablag'larini ifodalovchi iqtisodiy kategoriya bo'lib, ular korxonada moliyaviy faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi [7].

Majburiyatlar miqdori xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini belgilab beruvchi muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 234-moddasiga muvofiq, "Majburiyat - fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa - qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi" [1].

2-jadval.

Uzoq muddatli majburiyatlarning korxonada faoliyatiga ta'siri.

Ijobiy ta'sirlar	Salbiy ta'sirlar
Investitsion imkoniyatlarni kengaytiradi	Foiz xarajatlarining ortishiga olib keladi
Ishlab chiqarish hajmini oshiradi	Qarzdorlik darajasini oshiradi
Moliyaviy resurslar yetishmovchiligini bartaraf etadi	To'lov qobiliyatiga bosim o'tkazishi mumkin
Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi	Moliyaviy risklarni yuzaga keltiradi
Korxonada raqobatbardoshligini oshiradi	Moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin

O'z faoliyatini amalga oshirish uchun korxonada tasarrufida muayyan iqtisodiy resurslar - bozor talabi bilan ta'minlanadigan iqtisodiy ne'matlar, ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan elementlar mavjud bo'lishi lozim. Majburiyatlar bu tashqi foydalanuvchilar yoki kreditorlar tomonidan biznesda qarzlarni yoki haqdorlik munosabatini yuzaga keltirishdir. Majburiyatlarga misol qilib kreditorlar (ta'minotchilardan mahsulotni kreditga sotib olganligi uchun qarzdorlik), bank kreditlari, foydalanilgan jamlangan xarajatlar (suv va elektr toki) va soliq to'lovlari kabi to'lanmagan biznes xarajatlarni keltirish mumkin [9].

Majburiyatlarning huquqiy jihatdan tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4611-son qarori (2020-yil 24-fevral) "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (keyingi

o‘rinlarda - MHXS) o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta’minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Mazkur qaror mamlakatimizda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlarga (MHXS) moslashtirishga qaratilgan. Ushbu hujjat uzoq muddatli majburiyatlarni:

- 1) to‘g‘ri e‘tirof etish,
- 2) baholash (jumladan diskontlash),
- 3) moliyaviy hisobotlarda aks ettirish masalalarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son farmoni (2017-yil 7-fevral) “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”. Mazkur farmonda iqtisodiyotni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va bank-moliya tizimini takomillashtirish asosiy yo‘nalish sifatida belgilangan. Bu esa:

- uzoq muddatli kreditlar hajmining oshishi,
- investitsion majburiyatlarning ko‘payishi,
- korxonalar qarz kapitalining kengayishi kabi jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son farmoni (2022-yil 28-yanvar) “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.

Ushbu farmon doirasida investitsiya muhitini yaxshilash, korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, bank kreditlari va uzoq muddatli moliyalashtirishni kengaytirish kabi vazifalar belgilangan bo‘lib, bu uzoq muddatli majburiyatlarning iqtisodiyotdagi rolini yanada oshiradi [3].

Yuqoridagi Prezident farmon va qarorlari uzoq muddatli majburiyatlarning shakllanishi, ularni hisobga olish va boshqarish tizimini takomillashtirishda muhim me‘yoriy-huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular orqali korxonalarda uzoq muddatli moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish, moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta’minlash va investitsion faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Qarz korxonaning turli bitimlarni bajarishi natijasida vujudga keladi va tovarlar, ko‘rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar yuzasidan kelgusidagi to‘lovlar uchun huquqiy asos bo‘lib hisoblanadi.

1-sonli BHMS “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot”ga binoan qarzlarni baholashning asosi bo‘lib, sotib olingan aktivlar, xizmat va ishlarning tannarxi yoki qiymati hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining ushbu milliy standartida majburiyatni odatda, aktiv olinganda yoki xo‘jalik yurituvchi subyekt

aktivni sotib olish to'g'risida bitimga kirishgan daqiqadan paydo bo'ladi, deb ko'rsatilgan [5].

3-jadval.**Uzoq muddatli majburiyatlarni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar.**

Hujjat nomi	Mazmuni
O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni	Buxgalteriya hisobi yuritishning umumiy qoidalarini belgilaydi
Buxgalteriya hisobi milliy standartlari	Majburiyatlarni hisobga olish va hisobotda aks ettirish tartibini belgilaydi
Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari	Moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablarga muvofiq tuzishni tartibga soladi
Soliq kodeksi	Soliq majburiyatlarini hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi
Fuqarolik kodeksi	Qarz va kredit munosabatlarining huquqiy asoslarini belgilaydi

Majburiyatlarning yuridik va iqtisodiy mazmuni xo'jalik yurituvchi subyektlar majburiyatlarining moliyaviy hisobot maqsadlari uchun zarurligini taqozo etadi. Hisob nazariyasida majburiyatlar asoslar bo'yicha tasniflangan bo'lishi mumkin. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib, iqtisodchi olimlar Karimov A. A., Kurbanbayev J.E., Jumanazarov S. A. majburiyatlarni quyidagicha guruhlashni taklif qilishgan:

- 1) ularda hisob subyektlari - korxonalarining ishtirok etishi varianti bo'yicha;
- 2) tashkilotning moliyaviy ahvoriga ta'sir ko'rsatishi davomiyligi bo'yicha;
- 3) muddatlari bo'yicha.

Iqtisodiy ma'nosiga ko'ra majburiyatlar korxonadan olingan yoki olinishi mumkin (kreditorlik qarzi), taqdim etilgan va taqdim etilishi mumkin (debitorlik qarzi), kelgusida monetar kabi nomonetar aktivlar oqimini shakllantiruvchi qarzlarning hajmini o'zida aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, uzoq muddatli majburiyatlar korxonalarining moliyaviy faoliyatida muhim o'rin egallab, ularning investitsion imkoniyatlarini kengaytirish va strategik rivojlanishini ta'minlashda asosiy moliyaviy manbalardan biri hisoblanadi. Ular orqali korxonalar yirik loyihalarni moliyalashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Uzoq muddatli majburiyatlardan samarali foydalanish korxonaning moliyaviy barqarorligini saqlash, to'lov qobiliyatini mustahkamlash va risklarni to'g'ri

boshqarish bilan bevosita bog'liqdir. Majburiyatlarning ortib ketishi esa moliyaviy yuklamani kuchaytirishi va korxonalar barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mazkur majburiyatlarni to'g'ri hisobga olish va ularni amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar asosida yuritish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligini ta'minlaydi. Shu bois, uzoq muddatli majburiyatlarni samarali boshqarish korxonaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni (2022-yil 28-yanvar) "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".
4. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni.
5. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS).
6. Abdulkarimov B. A. "Korxonalar iqtisodiyoti" – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
7. Dushmanov R. D. "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
8. Karimov A. A., Kurbanbayev J. E., Jumanazarov S. A. "Buxgalteriya hisobi" – Toshkent, 2019.
9. To'xtasinov I. T. "Moliyaviy hisob" – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
10. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi.
11. www.imv.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
12. www.ifrs.org - International Financial Reporting Standards Foundation.